



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

3 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 3, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 3, ISSUE 10



ТОШКЕНТ-2020

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

«Ўтмишга назар» илмий журнали тахририй маслаҳат кенгаши
редакционный совет научного журнала «Взгляд в прошлое»
Editorial board of the scientific journal Looking into the past

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон
тиллари университети

Зияева Доно Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Кебадзе Мадонна
доктор исторических наук, Телавский
государственный университет, Грузия

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
доктор исторических наук, Телавский
государственный университет, Грузия

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети, Қозоғистон

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат тиббиёт институти

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
профессор, Телавский государственный
университет, Грузия

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Республикаси
Фанлар академияси

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ташқи ишлар вазирлиги қошидаги
Дипломатия академияси,
Қозоғистон Республикаси

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Россия ФА, Санкт-Петербург
Тарих институти

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор
Давлат тарихи институти, Қозоғистон

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор
Ал-Фаробий номидаги Қозоғистон
Миллий университети, Қозоғистон

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон Давлат университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Талапов Бахриддин Алижанович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Захидова Саховат
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича
фалсафа доктори, доцент
Наманган давлат университети

Махкамов Қодиржон Одилжонович
PhD, доцент в.б.
Наманган давлат университети

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT


1. Равшан Ҳалимович Акбаров ТУРКИСТОНДА БУТУНРОССИЯ ТАЪСИС МАЖЛИСИГА САЙЛОВЛАРНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ (ФАРҒОНА ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА).....	4
2. Улуғбек Қўчқорович Исмоилов ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ДЕМОКРАТИК ИСЛОҲОТЛАР ВА ХАЛҚИМИЗНИНГ ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИГИ.....	11
3. Salamat Mamanuli Ktaybekov LIU ZHI JUANNING "IPAK TARIXI" ASARIGA TARIXIY NIGOH.....	19
4. Saidamirxon Mahmudov ZAMONAVIY TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHIDA KOREYA-O'ZBEKISTON HAMKORLIGINING ISTIQBOLLARI.....	24
5. Orifxo'ja Odilovich Mo`minov ARXELOGIYADA QADIMGI HUDUDLAR LANDSHAFTLARINI TUZISHDA GATNING O'RNI.....	31
6. Орифа Зулфикоровна Норова МАМЛАКАТИМИЗ АҲОЛИСИНИНГ МУЗЕЙШУНОСЛИК МАДАНИЯТИНИ ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	38
7. Жаҳонгир Давлатович Остонов БУХОРО ИНҚИЛОБИ ЁХУД КОММУНИСТИК ИНТЕРВЕНЦИЯ? БУХОРО ВОҚЕАЛАРИГА ЯНГИЧА ҚАРАШ.....	44
8. Мархабо Давлатовна Пардаева ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ МАЪРИФАТ БИЛАН КУРАШИШДА МУТАФАККИР ЖАДИДЛАР ҚАРАШЛАРИНИНГ ЎРНИ.....	51
9. Рустамжон Султонмуродович Солиев ВАТАН ВА ХАЛҚ МАНФААТИ ЙЎЛИДА.....	58
10. Юлдуз Бобокуловна Турсунова ЎРТА ОСИЁ ВА ҚОЗОҒИСТОН МУСУЛМОНЛАР ДИНИЙ ИДОРАСИ ТАРКИБИНИНГ АРХИВ ҲУЖЖАТЛАРИДА АКС ЭТИШИ.....	62
11. Санъат Ҳайитбоевич Хўжамов ТОШКЕНТДАН ТОПИЛГАН ЯНГИ КУФИЙ ДИРҲАМ ТАНГАЛАР.....	69
12. Наргиза Ғаниевна Қаландарова БУХОРО ШАҲРИ АРХИТЕКТУРА ОБИДАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ.....	75

ЎТМИШГА НАЗАР ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

Saidamirxon Mahmudov,
O'zbekiston Milliy universiteti,
O'zbekiston tarixi kafedrasini o'qituvchisi
saidamirxon.mahmudov.1994@mail.ru

ZAMONAVIY TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHIDA KOREYA-O'ZBEKISTON HAMKORLIGINING ISTIQBOLLARI

For citation: Saidamirxon Makhmudov, PROSPECTS FOR KOREAN-UZBEK COOPERATION AT A NEW STAGE OF MODERN DEVELOPMENT. Look to the past. 2020, vol. 10, issue 3, pp.24-30

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2020-10-4>

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida xalqaro hamkorlik borasida amalga oshirgan tashqi siyosati xususida so'z yuritiladi. Asosiy urg'u Koreya va O'zbekiston aloqalarining tarixiy ildizlariga hamda O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida Koreya Respublikasi bilan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy sohalarida amalga oshirilgan hamkorlik aloqalariga qaratiladi. Muallif ayniqsa, ikki davlat o'rtasidagi siyosiy aloqalar haqida to'xtalib, zamonaviy boshqaruv sohasining so'nggi yutuqlarini O'zbekiston Respublikasi boshqaruv tizimi andozalariga moslashtirishning amaliy ahamiyati va iqtisodiy afzalliklari haqida tahliliy xulosalarini taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Koreya Respublikasi, diplomatiya, deklaratsiya, delegatsiya, investitsiya, Seul meriyasi, menejment, Ustyurt gaz-kimyoy majmuasi, Yodju universiteti, "Live Soul" tizimi, Aqlli shahar, urbanizatsiya.

Саидамирхон Махмудов,
Национальный университет Узбекистана,
Преподаватель кафедры истории Узбекистана
saidamirxon.mahmudov.1994@mail.ru

ПЕРСПЕКТИВЫ КОРЕЙСКО-УЗБЕКСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА НА НОВОМ ЭТАПЕ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается политика международного сотрудничества Республики Узбекистана в годы независимости. Особо отмечается исторические корни корейско-узбекских дипломатических отношений в сферах социально-политического, экономического и культурного сотрудничества двух стран. Кроме того, особое внимание было уделено политическим отношениям между двумя странами и даны аналитические выводы о практической значимости и экономической выгоде от внедрения последних достижений

современной системы управления в стандарты системы государственного управления в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: Республика Корея, дипломатия, декларация, делегация, инвестиции, мэрия Сеула, государственное управление, Устьюртский газохимический комплекс, Университет Йоджу, система “Live Soul”, “Smart City”, урбанизация.

Saidamirhon Makhmudov,
National University of Uzbekistan,
Teacher of the Department of History of Uzbekistan
saidamirxon.mahmudov.1994@mail.ru

PROSPECTS FOR KOREAN-UZBEK COOPERATION AT A NEW STAGE OF MODERN DEVELOPMENT

ABSTRACT

The article discusses the policy of the Republic of Uzbekistan in context international cooperation during the years of independence. Author especially mentioned to the historical roots of Korean-Uzbek diplomatic relations on the context socio-political, economic and cultural cooperation between two countries. Moreover, paid special attention to the political relations between the two countries and have provided analytical conclusions on the practical significance and economical benefits of implementing the latest achievements of modern governance system to the standards of governance system in the Republic of Uzbekistan.

Key words: Republic of Korea, diplomacy, declaration, delegation, investment, Seoul City Hall, state management, Ustyurt Gas-Chemical Complex, Yodju University, Live Soul system, Smart City, urbanization.

1. Dolzarbligi:

O'zbekiston o'z mustaqilligini tiklagandan so'ng, o'z milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifa sifatida kun tartibidan joy olgan edi. Negaki, istiqloлга erishgan davlat o'z mustaqilligini mustahkamlash, yurt va xalq xavfsizligi, barqarorligi hamda taraqqiyoti singari vazifalarni oqilona uzoqni ko'zlagan holda hal etilishiga bog'liq bo'lib qolgan edi. Bu osongina yechiladigan vazifalar emasdi. Masalaning murakkabligi shundan iborat ediki, Sobiq Ittifoq davrida tashqi siyosat yuritish, tashqi dunyo bilan aloqa qilish, tashqi savdoni tashkil etish Moskva tomonidan olib borilar edi. O'zbekiston dunyo bilan to'g'ridan-to'g'ri erkin aloqa qilolmaydigan yopiq mamlakat edi. Davlat tashqi siyosatini yuritish tajribasiga ham, jahon diplomatiyasini, tashqi iqtisodiy faoliyatni biladigan zamon talablariga mos kadrlar zahirasiga ham ega emas edi. Respublikada esa bunday kadrlarni tayyorlaydigan oliy o'quv yurti ham yo'q edi. O'zbekiston rahbariyati bu sohadagi ko'p qirrali ishlarni boshidan boshlashiga to'g'ri keldi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tomonidan tashqi siyosat masalasi alohida e'tiborga olindi. Islom Karimov o'zining “O'zbekiston o'z istiqloл va taraqqiyot yo'li” [1] va boshqa asarlarida O'zbekiston Respublikasi mustaqil tashqi siyosat yuritish borasida qanday prinsplarga tayanishini aniq ko'rsatib berdi. Respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi. “O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida”[2] gi, “Chet el investitsiyalari va xorijiy investorlar to'g'risida”[3] gi va boshqa qonunlar hamda normativ hujjatlar ana shular jumlasidandir. Xalqaro huquq normalarining ichki qonunlardan ustunligi respublika qonunchilik faoliyatida o'z ifodasini topdi. Tashqi siyosatni ta'minlaydigan vazirliklar va muassasalar tashkil etildi. Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, Investitsiyalar va savdo vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, ixtisoslashtirilgan tashqi savdo firmalari shular jumlasidandir. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv

akademiyasi va boshqa universitetlarda tashqi siyosiy hamda tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonning tanlab olgan tashqi siyosiy doktrinasi – tinchlik va osoyishtalikka qaratilganligi dunyoning ko'plab davlatlari bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. So'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi bilan 130 dan ortiq davlatlar diplomatik aloqalarni o'rnatgan[4].

Ular orasida bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olgan Osiyoning Hindiston, Indoneziya, Koreya Respublikasi, Malayziya, Yaponiya, Singapur singari industrial davlatlari o'rin olgan. Bugungi kunda O'zbekistonning xorijiy Sharq davlatlari bilan hamkorligi yanada jadallashib bormoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat oldida turgan muhim missiyalarning unumli bajarilishi ko'zda tutilgan sharoitda O'zbekistonning Sharqning rivojlangan davlatlari bilan diplomatik hamkorlik o'rnatishi istiqbolda yangi davrni boshlab berdi. Ana shunday dadil qadam 1992-yil mart oyida tashlandi. O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasida diplomatik aloqa o'rnatildi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqola ilmiy darajada e'tirof etilgan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, sinergetika tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda mustaqillik yillarida Koreya Respublikasi va O'zbekiston o'rtasida amalga oshirib kelinayotgan o'zaro manfaatli aloqalar tarixiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy aspektlarda ochib beriladi.

Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar haqida so'z boshlashdan avval, O'zbekiston va Koreya Respublikasi tarixi hamda davlatlarning o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalariga oid bo'lgan dolzarb mavzularni o'zlarining tadqiqot obyekti sifatida tanlab olib, ilmiy jihatdan iste'molga kiritgan bir qancha mualliflarning asarlari tavsifiga qisqacha to'xtalib o'tsak. Jumladan, S.O.Qurbonov[5] “История Кореи (с древности до начала XXI века)”, B.S.Li[6] “Страноведение. Республика Корея”, V.M.Tixonov, Kan Mangil[7] “История Кореи”, A.V.Torkunov[8] “История Кореи”, V.S.Xan[9] “Koreya tarixi”, YI Ki Baek[10], “A new history of Korea”, Richard Weitz[11] “Uzbekistan's New Foreign Policy: Change and Continuity under New Leadership”larning tadqiqotlari bunga misol bo'ladi. Yuqorida zikr etilgan asarlarda nafaqat Koreya tarixi balki, uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, xalqaro maydonda dunyo davlatlari, xususan, O'zbekiston bilan amalga oshirayotgan o'zaro manfaatli hamkorlik masalalari, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining Koreya bilan aloqalari xususiyatlari, ahamiyati, hamda istiqbollari haqida qimmatli tarixiy, statistik ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti qoshidagi “O'zbekistonning xalqaro munosabatlari va zamonaviy tarixi” bo'limi boshlig'i – t.f.d. prof. Mirzokhid Rakhimov, Koreyaning INHA universiteti professori Sung Dong Ki[12], O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti xodimi Amir Salyamov[13], Yaponiyaning Tsukuba universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti tadqiqotchisi Timur Dadabayev[14], Shotlandiyaning St. Andrews universiteti xalqaro aloqalar maktabi katta ma'ruzachisi Matteo Fumagalli[15] singari mahalliy va xorijiy mualliflarning yirik maqolalari ham ikki davlatning amalga oshirayotgan o'zaro hamkorlik aloqalariga bag'ishlangan ilmiy-tahliliy yondashuvlar bo'lib hisoblanadi.

3. Tadqiqot natijalari:

Koreya Respublikasi davlatimiz mustaqilligini 1991-yil 30-dekabr kuni tan olgan. Davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalar rasman 1992-yil 29-yanvardan boshlangan. Bu vaqt mobaynida ikki davlat rahbarlari ishtirokida 14 marotaba sammit o'tkazildi. 2006-yilda “O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi Strategik hamkorlik to'g'risida” gi o'zaro deklaratsiyani imzoladilar. Bu voqea siyosiy, savdo, iqtisodiy, investitsiya va madaniyat sohalarida ikki tomonlama hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi.

Mamlakatlar parlamentlararo aloqalar yo'nalishidagi o'zaro hamkorlikni ham jadal rivojlantirishmoqda. Jumladan, 1995-yilda Koreya Respublikasining Milliy Assambleyasida “Koreya – O'zbekiston” parlamentning do'stlik uyushmasi tashkil etilgan. 2005-yildan boshlab Oliy Majlisning Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi bilan hamkorlik bo'yicha

parlamentlararo guruhi faoliyat yuritmoqda. Ikki mamlakat o'rtasida hukumatlar darajasidagi delegatsiyalarning o'zaro tashriflari kengayib bormoqda. Muntazam ravishda tashqi ishlar vazirlari o'rinbosarlari darajasida siyosiy maslahatlashuvlar, xalqaro tashkilotlar doirasida muvaffaqiyatli hamkorlik olib borilmoqda[16].

Koreya va O'zbekiston o'rtasida dastlabki rasmiy tashriflar ana shu yilning o'zida bo'lib o'tdi. 1992-yilning 19-iyunida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Koreya Respublikasiga tashrif buyurdi. Bu safar ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy, savdo, madaniy-texnikaviy aloqalarga asos soldi. "O'zbekiston bilan Koreya Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik asoslari to'g'risida" deklaratsiya imzolandi. Savdo-iqtisodiy ayriboshlash haqida, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishni rag'batlantirishga mablag' sarflaydigan koreyalik ishbilarmonlarga beriladigan kafolatlar haqida bitimlar imzolandi. Madaniyat, maorif, ommaviy axborot, sayohat, sport sohaslarida hamjihat hamkorlik qilishning uzoq muddatga mo'ljallangan rejalari belgilab olindi. Ushbu davr mobaynida Respublika rahbariyati tomonidan 17 marotaba (1992, 1994, 1995, 1999, 2005, 2006, 2 marta 2008-yilda, 2009, 2010, 2011, 2012, 2014, 2015, 2017, 2018, 2019-yillarda) Koreya Respublikasi rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

Birgina 1999-yilga qadar Koreya Respublikasi O'zbekiston bilan 1.2 mlrd AQSH dollari hajmida sarmoya kirib keldi. O'zbekistonda 70 dan ziyod Koreya hamkorligida qo'shma korxonalar barpo etildi[17].

O'zR Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga asosan, 2017-yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanmasi 1 360,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, ulardan eksport 119,8 mln. AQSh dollari, import – 1 240,3 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Koreya Respublikasi tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning hajmi 7 mlrd. AQSh dollardan oshgan[18].

XXI asr esa barcha jabhalarda davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning yangi davri boshlanishiga turtki berdi. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston va Koreya Respublikasi bilan bir qancha hamkorlik aloqalari doirasida istiqbolli loyihalar qurib bitkazildi va ishga tushirildi. Shular orasida hajmi jihatdan eng yirik Markaziy Osiyoda yagona "Ustyurt gaz-kimy o'zlashuv majmuasi"ning barpo etilishi Koreya-O'zbekiston hamkorligining yuksak namunasi sifatida e'tirof etildi. O'zbekiston mustaqilligining 20 yilligi arafasida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov hamda Koreya Respublikasining o'sha davrdagi Prezidenti Li Myon Bak janoblari birgalikda "Ustyurt gaz-kimy o'zlashuv" majmuasi poydevoriga tamal toshi qo'yildi[19].

Koreya Respublikasi bilan o'rnatilgan hamkorlik aloqalari so'nggi 3 yilda o'zining mohiyatini zamon talablariga mos ravishda o'zgartirib, jadal taraqqiy etib kelmoqda. Xususan, 2017-yilning noyabr oyida Shavkat Mirziyoyev rasmiy visit bilan Koreya Respublikasiga tashrif buyurdi. Mana shu tashrifgacha, aniqrog'i 2016-yilning o'zida Koreya-O'zbekiston tovar aylanmasi 1 mlrd. AQSH dollardan ortgan. Koreya Respublikasining Markaziy Osiyodagi tovar aylanma ulushi birgina O'zbekistonning o'zidan 50 % dan ortgandi. Bu esa yangi istiqboldagi hamkorlikni yanada jadallashtirish lozim ekanligini anglatishi shubhasiz edi. Shu munosabat bilan 2017-yilgi davlat rahbarlarining xalqaro darajadagi uchrashuvida ikki davlat o'rtasida bir qancha muhim shartnomalar imzolandi[20].

Raqamlarga nazar solsak, Shavkat Mirziyoyevning Seulga qilgan rasmiy tashrifi mobaynida turli sohalarni qamrab olgan 60 dan ortiq shartnomalar imzolandi. Shartnomalarning umumiy miqdori savdo investitsiya shartnomalari bilan birgalikda 8.94 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi. Savdo tijorat maqsadlarida ikki davlat o'rtasidagi umumiy tovar aylanmasi 1.19 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi. Hozirgi vaqtgacha 10-15 yilga mo'ljallangan Koreya-O'zbekiston o'rtasida loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda. O'zbekistonda mavjud 461 korxonadan 79 tasigina akkreditatsiya qilingan xolos. Bu jarayonni 100 % yakuniga yetkazish, shu bilan birga gazni qayta ishlash sohasiga 4.5 mlrd AQSH dollari, "Toshkent 4" aeroportining yangi terminalini barpo etishga 312 mln AQSH dollari miqdoridagi ulkan mablag' safarbar etilgan.

Albatta, iqtisodiy hamkorlik bilan paralell ravishda gumanitar sohada ham aniq ustuvor maqsad va dasturlar belgilab olingan. Jumladan, Toshkentda bir smenada 200 bemorni qabul qilishga ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli bolalar klinikasini barpo etish, Toshkent viloyatining

Zangiota tumanida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 17-aprelda boshlangan Innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasterining qurilishi to'liq davom ettirish, shuningdek, farmatsevtika texnika universitetini hamda zamonaviy dori vositalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, Koreyaning Xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) va Iqtisodiy rivojlanish jamg'armasi orqali moliyaviy va texnik yordam dasturlari doirasida qiymati 750 mln AQSh dollaridan ortiq bo'lgan 17 ta loyiha doirasida, Kimyoviy texnologiyalar markazi, kattalar uchun tibbiy klinikani qurish, O'zbekiston tibbiyot muassasalari va o'quv yurtlarini jihozlash, Koreya Respublikasida mavjud 30 oliygohlar bilan hamkorlikda yangi o'quv muassasalarini tashkil etish yuzasidan kelishib olingan.

Shu davrgacha koreys tili O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti va Samarqand davlat chet tillar institutida o'qitiladi, keyingi yillarda esa O'zbekistonda xalqaro standartlar darajasida axborot texnologiyalari, muhandislik, tibbiyot va logistika sohalarida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlaydigan oltita Koreyaning oliy o'quv yurtlarining filiallari o'z faoliyatini boshladi.

Xususan, 2014-yilda tashkil etilgan "INHA" universiteti, 2018-yil 15-oktabrda rasman faoliyatini boshlagan Toshkent shahridagi "Yodju" Texnika instituti, 2019-yil 23-avgust kuni Vazirlar Mahkamasining 714-sonli qaroriga asosan 2020-2021 o'quv yilidan faoliyatini boshlagan Farg'ona shahridagi "Koreya xalqaro universiteti"ni oliy ta'lim tizimidagi xalqaro hamkorlikning muhim natijalari sifatida e'tirof etish joiz.

Shu bilan birga, davlatlarning o'zaro madaniy aloqalari ham yildan-yilga taraqqiy etib bormoqda. Buni 1937-yilgi deportatsiyadan buyon O'zbekistonda o'zining ikkinchi Vatani sifatida yashab kelayotgan koreys diasporasining mehmondo'st o'zbek xalqi bilan do'stona istiqomat qilayotganligi misolida qayd etish mumkin[21].

2017-yilda koreys diasporasi o'zlarining o'zbek zaminida istiqomat qilishlarining 80 yilligini nishonladilar. Shuningdek, 2014-yildan buyon samarali faoliyat ko'rsatib kelayotgan Toshkent shahridagi Seul bog'i, Koreya Respublikasi hukumati ko'magi bilan Toshkentda qurilgan Koreya madaniyat va san'at uyi ikki davlatning madaniy aloqalari hamkorligining yorqin namunalaridir.

Shu o'rinda ikki davlat o'rtasidagi samarali hamkorlikning yana bir yutug'i xususida to'xtalsak. Ma'lumki, dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasiga ko'ra, poytaxt shahar boshqaruv tizimiga alohida e'tibor beriladi. Poytaxt infratuzilmalari va ular ustidan samarali boshqaruv tizimini tashkil etish bugungi kunda davlat boshqaruv sohasidagi eng muhim vazifalardan sanaladi.

2017-yil 7-fevralda kuchga kirgan "Harakatlar strategiyasi" ning birinchi bandi ham davlat boshqaruvi sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan zamonaviy transformatsion jarayonlarning yo'l xaritasi va yuridik asosi hisobladi[22].

Bugungi kunga kelib, Koreya Respublikasi poytaxti Seul meriyasi boshqaruvi tizimida innovatsion "Live Seoul" (Jonli Seul) ofis rejimi faoliyat yuritmoqda. 2017-yilning iyun oyida keng ommaga namoyish etilgan ushbu tizimni Toshkent shahriga olib kelish hamda boshqaruv tizimida eng so'nggi tizimni ishga tushirish bugungi kunda hukumatimiz tomonidan muhim vazifa sifatida e'tirof etilmoqda.

Rossiya Federatsiyasi OAV vakili TACC da e'lon qilingan rasmiy manbaga asosan, 2011-2020 yillarda Seul meri vazifasida faoliyat olib borgan Pak Von Sun - "Live Soul tizimi – dunyo menejment sohasidagi eng so'nggi yanglik bo'lib, bu kelgusida davlat boshqaruvi yanada shaffofligini ta'minlashda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan urbanizatsion muammolarning favqulotda munosib yechimlarini ishlab chiqishda, hamda fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etilishda muhim rol o'ynaydi"[23] deb, ta'kidlagan.

Hozirgi vaqtga qadar Toshkentga Seul meriyasi delegatsiyasi bir necha bor tashrif buyurdi. Shu bilan birga Seul meriyasi departamenti AKT sohasida 20 yillik tajriba ega bo'lgan mutaxassis Kim Yu Shik Toshkent shahar hokimining maslahatchisi lavozimiga tayinlandi. U poytaxt ma'muriyati faoliyati tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etishga mas'ul bo'lib, Toshkentda Seuldagi muqobili kabi shaharni boshqarish bo'yicha vaziyat markazini yaratish rasmiy vakilga yuklatilgan vazifa hisoblanadi. Bir yildan so'ng, markaz orqali shahardagi

kommunal, shaharsozlik, yong'in xavfsizligi, tezkor munosabat bildirish tizimi sohalarida ro'y berayotgan vaziyatlarni onlayn-rejimda kuzatish mumkin bo'ladi. Unga ko'chalardagi videokuzatuv kameralari ham ulanadi. Bu esa kelgusida Toshkentda Seul meriyasida mavjud boshqaruv tizimini Toshkent uchun transformatsiyalashgan ko'rinishini ta'minlashi shubhasiz[24].

Shahar miqyosida yaqin aloqalarni o'rnatish doirasida Toshkent bilan Seuldagi tashqari Farg'ona va Inchxon, Samarqand va Gyonju, Yangiyo'l va Yangsan hamda boshqa ko'plab shaharlar o'rtasidagi munosabatlar ham kundan-kunga mustahkamlanib bormoqda[25].

4. Xulosalar:

Xulosa sifatida quyidagi argumentlarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq:

- Mustaqillik yillarida Koreya Respublikasi va O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro manfaatli diplomatik aloqalar o'rnatildi;
- O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqilligini birinchilardan bo'lib e'tirof etgan Koreya Respublikasi bilan avtomobilsozlik sohasidagi yaqindan hamkorligi tufayli Markaziy Osiyo mintaqasida dastlabki va yagona avtomobil ishlab chiqaruvchi davlatga aylandi. Dunyoning avtomobilsozlik sanoatiga ega bo'lgan kam sonli davlatlari qatoridan joy oldi. Bugungi kunga kelib milliy o'zbek breidi ostidagi avtomashinalar MDH hamda Sharqiy Yevropa davlatlariga keng miqyosda eksport qilinmoqda;
- Ijtimoiy sohada o'zaro aloqalar tufayli bugungi kunga kelib Koreya meditsinasi va ta'lim tizimi O'zbekistonning ushbu sohalariga yaqindan kirib bormoqda. Xususan, xalqaro standartlarda barpo qilinayotgan ko'p tarmoqli shifoxona loyihasidan tortib, xalqaro statusga ega bo'lgan Koreya universitetlarining O'zbekistonda tashkil etgan oliy ta'lim dargohlarini bunga misol qilish mumkin;
- Siyosiy sohada Koreya Respublikasi bugungi kunda O'zbekistonning yaqin hamkori sifatida ko'plab ekperimental sinovlarni tashkil qilishda yaqindan ko'maklashdi. Xususan, hukumat elektron portallarini shakllantirishda, virtual hokimiyat tizimini realizatsiya qilishda, saylovlarda elektron ro'yhatga olish tizimini joriy etishda va raqamli ofislarni tashkil etishda o'zaro manfaatli natijalarga erishmoqda. Bu borada mos ravishda davlatlar axborot-kommunikatsiya sohasida ham yaqindan hamkorlik qilmoqda;
- Zamonaviy menejment sohasida "Jonli Seul" tizimini Toshkent shahri boshqaruv adminstratsiyasiga realizatsiya qilinishga start berilishini shahar boshqaruvi sohasidagi eng so'nggi xalqaro hamkorlik sifatida e'tirof etish mumkin. Aynan shu tizimning poytaxt Toshkent shahriga va kelgusida bosqichma-bosqich viloyatlarning markaziy shaharlariga amaliy iste'molga kiritilishi poytaxt hamda markaziy shaharlarda yuzaga keladigan urbanizatsion muammolarning muqobil yechimi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa tabiiy resurslarning tejab qolinishiga, shu bilan birga shaharlarning arxitekturaviy qiyofasini tubdan o'zgarishiga, fuqarolarning barcha sohalaridagi manfaatlarini himoya qilishga, poytaxt shahar Toshkentning xalqaro imijini yanada yuksalishiga hamda dunyoning rivojlangan "Smart City"lari darajasiga olib chiqishiga asosiy faktor bo'lib xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

- 1 Karimov I. A. Uzbekistan's its own path to independence and development. T.: Uzbekistan. 1992.
- 2 "About major principles of foreign policital activity of the Republic of Uzbekistan" UzR Law. 336-I-volume 26.12.1996.<https://lex.uz/docs/-39149>
- 3 "About foreign investments and foreign investors" UzR Law. 609-I-volume 30.04.1998. <https://lex.uz/docs/-32450>
- 4 Diplomatic relations of Uzbekistan with foreign states//<http://geografiya.uz/bilasizmi/784-ozbekiston-respublikasi-bilan-diplomatik-aloha-orntatgan-mamlakatlar-royxati.html>
- 5 Kurbanov S.O. History of Korea (from ancient period until XXI century). – St. Petersburg.: Publishing house St. Petersburg. 2009.
- 6 Li B.S. Country geography. Korean Republic. T.: National Encyclopedia of Uzbekistan. 2012.

- 7 Tixonov V.M. History of Korea. In 2 volumes. M.: Natalis. 2011.
- 8 Torkunov A.V. History of Korea (New reading) Under edition A.V.Torkunov. M.:MGIMO, ROSSPEN. 2003.
- 9 ХанV.S. History of Korea.Т.: Baktria-press. 2013.
- 10 Yi Ki Baek. A New History of Korea. Harvard University Press. p. 67. ISBN 9780674615762. Retrieved 2 August 2016.
- 11 Richard Weitz. Uzbekistan's New Foreign Policy: Change and Continuity under New Leadership. Central Asia-Caucasus Institute and Silk Road Studies Program, Lithuania 2018.
- 12 <https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13369-uzbekistan-and-south-korea-towards-a-special-relationship.html>
- 13 <http://www.isrs.uz/en/page/pdf/the-korea-times-innovative-horizons-of-cooperation-between-uzbekistan-and-the-republic-of-korea-in-the-context-of-digitalization-of-the-economy>
- 14 <https://journals.sagepub.com/doi/pdf/10.1177/1879366520943896>
- 15 https://www.researchgate.net/publication/272747874_South_Korea's_engagement_in_Central_Asia
- 16 Cooperation between Korea and Uzbekistan// <https://kun.uz/uz/news/2017/11/22/uzbekiston-va-korea-urtasidagi-siesij-amkorlik>
- 17 Usmonov Q. History of Uzbekistan. T.: Teacher. 2012. P.294-296.
- 18 Official websites of Ministry of foreign affairs. <https://mfa.uz/uz/cooperation/countries/199/>
- 19 Ustyurt gas-chemical complex // http://www.uza.uz/uz/politics/ustyurt-gaz-kimyo-majmui-ozbekiston-bilan-janubiy-koreya-ortasidagi-muvaffaqiyatli-hamkorlikning-yana-bir-yorqin-namunasi-24.08.2011-18563?month=8&year=2017&ELEMENT_CODE=ustyurt-gaz-kimyo-majmui-ozbekiston-bilan-janubiy-koreya-ortasidagi-muvaffaqiyatli-hamkorlikning-yana-bir-yorqin-namunasi-24.08.2011-18563&SECTION_CODE=politics&bxajaxid=7a95025902f2110f0a021324d87641cf
- 20 Cooperation of Korea and Uzbekistan // <https://www.gazeta.uz/oz/2017/11/24/koreya-uchrashuv/>
- 21 <https://interkomitet.uz/o-komitete/nacionalnye-kulturnye-centry/associaciya-korejskih-kulturnyh-centrov-uzbekistana/>
- 22 ПФ-4947-сон//www.lex.uz/http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036//Тошкент ш., 2017-йил 7 февраль.
- 23 Controlling Seoul cityhall//<http://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/4350566>
- 24 Korean specialist // <http://xs.uz/uz/post/zhanubij-koreyalik-mutakhassis-toshkent-shahar-hokimi-maslahatchisi-lavozimiga-tajinlandi/>
- 25 https://www.koreatimes.co.kr/www/nation/2020/09/176_295255.html

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

№10 (2020)

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000